

ZAMONAVIY TERMINOLOGIK MUAMMOLAR.

Shomurodova Sabohat Avulfaiz qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7619925>

Annotatsiya: Ushbu maqolada terminologiya haqida terminologiyadagi muammolar va ularga yechim topish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: termin, atama, qilichbozlik, salbiya, fransuz tili, rapira, tarjima.

So'nggi yillarda o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda, bu esa o'zbek tilida sohalarga oid atamalar ya'ni terminlar bilan ishlashga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Terminning ma'nosi, mohiyati, uning nomidan kelib chiqadi.

Demak, Terminus lotincha – chegara, chek bundan ko'rinib turibdiki termin chekli, chegaralangan yani, termin muayyan sohaga oid, aniqrog'i-bir ma'noli so'zdir. Ma'lumki, har qanday so'z tug'ilishida bir ma'noli bo'ladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u ko'p ma'noli so'zga aylanib boradi. Lingvistik terminologiyaga bag'ishlangan ilmiy ishlarda har qanday termin so'zdir, lekin har qanday so'z termin bo'lolmaydi, degan fikr ilgari suriladi.

Termin cheklanganligi, ya'ni bir ma'noni ifodalaganligi tufayli maxsus kontekstda hamma vaqt o'z ma'nosini saqlaydi. U emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Ohang yordamida terminning ma'nosi o'zgarmaydi.

Demak termin ma'lum bir sohaga oid so'zlar majmui. Ma'lum bir sohaga oid bo'lgan termin. Ayni shu sohada faqat birgina ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Demak, termin ma'lum bir sohada aniq bir ma'noga ega bo'lgan so'zdir O.P. Frolova esa –terminologiyaga shunday ta'rif beradi: –Ma'lumki fanning atamalar tizimi sifatida tushunchalar tizimiga muvofiq bo'ladi, har qanday tushunchalar tizimiga aniq bir atamalar tizimi bog'liq bo'ladi. Fan rivojlanishi bilan atamalar tizimi ham rivojlanib boradi.

Termin ma'lum bir sohaga oid so'z bo'lish bilan birqatorda shu so'z tilning boyligi hamdir va bu holat tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika til leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarini boshdan kechiradi.

Hozirgi kunda, O'zbekistonda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika, madaniyat va sport kabi sohalarining rivojlanishi o'zbek tilida terminologik lug'at salmog'ini kundan kunga oshirmoqda. Ayni paytda o'zbek tilida fan va texnikaning deyarli barcha sohalariga oid termin va terminologik sistemalar vujudga keldi. Ular, asosan, tarjima va original asarlar yaratish jarayonida vujudga kelmoqda. Ular o'zlari ifodalagan tushuncha bilan birga qabul qilinadi, lekin o'zlashtirgan tilda lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi. Fransuz tili boshqa tillar kabi o'z leksik boyligiga ega. So'z boyligining ma'lum bir qismini atamalar tashkil qiladi. Terminlar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni ochiq ifoda etuvchi so'zlar bo'lsada, lekin u so'zlarning qo'llanishi shu soha kishilarigagina ma'lum va tushunarlidir. Buni qilichbozlik sport turi misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ularni e'tibor bilan o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Terminlar yasashning eng ko'p tarqalgan usuli — mavjud so'zlarga yangi ma'no berish (ularni boshqacha tushunish). Masalan, ko'prik, kirish, o'tish, chiqish kabi so'zlar gimnastikada ana

shunday terminlardan hisoblanadi. Ko'pincha terminlar so'zlarning, masalan, past-baland (bruslar), balandlab uzoqqa (sakrash) singari o'zaro (birlashishidan ham yasaladi. Osilish, tayanish, tebranish, o'tirish va shu kabi ayrim so'zlar termin sifatida qo'llaniladi. Statik holatlarni bildiradigan terminlar, masalan, tayanish, bilaklarga tayanish, qo'ltiqlarga tayanish; kuraklarda - turish, kallada turish, qo'llarda turish kabilarda tayanch sharti hisobga olinadi, osilish, burchakli osilish, bukilib osilish, egilib osilish gavda holati (uning bo'g'inlarini bir-biriga nisbatan qanday turishini) hisobga olib yasaladi.

Tebranish mashqlarining terminlari muayyan harakatlantiruvchi faoliyat xususiyatlarini hisobga olib yasaladi. Masalan: bilaklarga tayanib turib oldinga siltanib ko'tarish, qaddini rostlab siltanib ko'tarilish, oyoqni juftlab yoki bitta oyoqda ko'tarilish va hokazo. Sakrash va sakrab turish terminlari sport gimnastikasida gavdaning havodagi holatiga qarab belgilanadi, masalan: oyoqlarni yig'ib sakrash, oyoqlarni kerib sakrash, to'ntarilish; badiiy gimnastikada gavda bilan oyoqlar holatiga qarab belgilanadi: yopiq sakrash, ochiq sakrash, odimlab sakrash, sapchish, tayanib dumbaloq oshish, tashlanib sakrash, siltanib sakrash, chir aylanib sakrash va hokazolar.

Bugungi kundagi ko'pgina sohalarda, ayniqsa zamonaviy ilm-fan sohasida eng dolzarb muammolardan biri bu — terminologiya desak xato bo'lmaydi. Terminologiya sabab juda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelamiz, hatto o'rganishimiz uchun sezilarli xalaqit bergan holatlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Masalan, xuddi shunday muammolarni bartaraf qilish maqsadida tibbiyot sohasida umumiy yechim ishlab chiqilgan, ya'ni eramizdan avvalgi 4-5 asrlarda yashagan Hyppocrat asarlaridagi terminlar tibbiyot terminlari deb qabul qilingan (asosan, grek va lotin tilida). Olimlar tomonidan ushbu terminlarga ma'lum vaqtlarda qo'shimchalar kiritiladi va qayta tahrirlanib boriladi. Butun dunyo ushbu terminologiyani buzmasdan, aynan foydalanadi. Lekin afsuski, yangi sohalarda terminologiyaga juda katta ahamiyat berilmagani bilan bir qatorda, barcha foydalanuvchilar o'zlariga moslashtirib tarjima qilishayotgani, bunda aniq bir o'lcham va standartlarning yo'qligi bir qator muammoloarga sabab bo'lmoqda. Hozir e'tibor qaratmoqchi bo'lganimiz bu IT sohasida terminologiya. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, o'zbek adabiyotlarida, birgina Artificial Intelligence (AI) yoki Machine Learning (ML) so'zlarini bir necha xil tarjimasini uchratishingiz mumkin: sun'iy ong, sun'iy intellekt, sun'iy aql yoki mashina tili, mashinaviy o'qitish tili, mashinaviy o'rgatish, mashinaviy o'rganish tili va hokazo. Bunday nostandartlik va har xillik o'quvchini nafaqat chalg'itadi, balki ba'zida bezdirib yuboradi. Shuning uchun bunday muammolarga barham berish maqsadida xalqaro standartni qabul qilishimiz hamda tibbiyot va boshqa sohalardagi kabi asl so'zlarni qo'llashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Qachondir o'zimizning olimlar ham sun'iy intellekt kabi tizimlar yaratganida o'zbekcha nomlashsa, balki butun dunyo o'sha terminlarni qabul qilar.

References:

1. Akobirov S.F, Til va terminologiya, T., O'zbekiston. 1968 y. 22-23 betlar
3. Akobirov S. Til va terminologiya. - Toshkent, 1968.
3. Abdurahmonov F. Terminologiya muammolari. - Toshkent. 1986.